



Intellectual qiziquvchanlikni uchqunlatish

Hurmatli oilalar va hamkasblar,

Dushanba kuni uchinchi bor o'tkazilgan yillik State of Our Schools uchrashuvini biz biroz boshqacha formatda o'tkazdik.

Avvalo, biz bevosita o'quvchilarimiz, xodimlar hamda oilalarni tinglash uchun [sahnaning o'zida muhokamalar](#) uyushtirdik. Shtab boshlig'i Kenita Lloyd suhbat moderatori bo'ldi va NYC Solves dasturidan boshlab oilalarni qo'llab-quvvatlashgacha bo'lgan mavzular ko'tarildi. Men panel ishtirokchilarining fikrlarini eshtar ekanman, Nyu-Yorklik o'quvchilar, oilalar, maktab xodimlari, hamjamiyat a'zolari va o'z ishiga bo'lgan mas'uliyati bilan har kungi faoliyatimizni ilhomlantiradigan boshqa shaxslar bilan bitta xonada bo'lganimdan g'ururlandim.

So'ngra men bitta tasvir, ya'ni uchqun atrofiga qurilgan [fikrlarimni](#) ulashdim. Men biz o'quvchilarda intellektual qiziquvchanlikni uyg'otish bo'yicha qiladigan ishlarimiz haqida gapirdim va asosiy e'tiborni NYC Reads, NYC Solves hamda Student Pathways orqali akademik talabchanlik va chuqur o'rganishga qaratdim. Men eng yangi ustivor tashabbusimiz bo'lgan NYCPS Cares bog'lash va qayg'urish qudrati yordamida uchqun yoqayotganiga oid ma'lumotlarni ulashdim.

Undan tashqari, men [bir necha yangiliklarni e'lon qildim](#), xususan, yangi NYC Reads o'quv rejasi yordamida ingliz tilini o'rganuvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 80 ta maktabni qamrab olgan pilot loyiha; bizning AI bo'yicha ishlarimizni yo'naltiradigan to'rt tomonlama ramka; hamda dastlabki NYCPS Cares guruhimizdagi 119 maktabda travmalardan boxabarlikni oshirish kabi ishlar shular jumlasidandir.

Va nihoyat, yana bir yangilik sifatida biz [NYC davlat maktablarining javobgarligi vositasini](#) chop etdik, bu bizning ishlarimiz borasida shaffoflik va muloqotni ta'minlashda muhim qadam bo'ladi. Men sizlardan ushbu vositani sinab ko'rishni va doimo tekshirib turishga chaqiramiz, chunki biz o'quv yili davomida ma'lumotlarni yangilab boramiz.

Dushanba kungi tadbir hayajonga to'la va qiziqarli bo'ldi. Men erishgan natijalarimizdan faxrlanishimni bildirgan holda hali oldinda qiladigan ko'plab ishlarimiz borligini tan olaman. Men nutqim oxirida ta'kidlaganim kabi uchqun barcha narsaning debochasidir va NYCPS barchasini endi boshlamoqda.

Hamkorlikda,

Melissa Aviles-Ramos
Maktablar tizimi rahbari

Kansler diqqat markazida

State of Our Schools panel muhokamasida ishtirok etgan Cindy Flores Bronksda joylashgan Ekologiyani o'rganish institutida sakkizinchi sinf matematika o'qituvchisidir. U 1989-yili davlat maktabida o'rta sinfda o'qigan vaqtida matematikaga oshiq bo'lgan va hozirga kelib 13 yildan beri dars berib kelmoqda! Muhokamada Flores xonim hamda uning ikki o'quvchisi Avril va Derek NYC Solves tashabbusining uning sinfiga ijobiy ta'siri haqida gapirdi. Ustozi ular haqida "kelajagi porloq matematiklar" deb ta'rifladi. "Ular menga bu ishimni davom ettirish uchun energiya beradi".

Rektorning diqqat markazida bo'lgan shaxs yoki dasturni [bu yerda](#) ko'rsating.

Bizning diqqatga sazovor videomiz:



Tarjimalar uchun bizning [YouTube](#) sahifamizga kiring.

Tarjima qilingan taglavhalarga kirish uchun: “CC” belgisini bosing. “Sozlash” belgisini bosing va “Taglavhalar/CC” bandini tanlang. “Avtomatik tarjima qilish” bandini tanlang va tilingizni tanlang.

NYCPS Yangiliklari va Resurslari:

- [Oktabr oyi uchun asosiy sanalar va tadbirlar](#) bilan [The Morning Bell](#) nashri orqali tanishing.
- Qo'shimcha yangiliklar va manbalar uchun NYCPS-ni onlayn kuzatib boring [Facebook](#), [Instagram](#), [X](#) va [YouTube](#).
- Bu yerda [haftalik video](#) dan Mayor Eric Adams. Siz [yangilanishlarni olish uchun](#) to'g'ridan-to'g'ri Hokimlikdan ro'yxatdan o'tishingiz mumkin.

NYCPS oilalari: Agar siz ushbu xabarnomani boshqa olishni xohlamasangiz, iltimos [obunadan chiqish](#).